BANK LIKVIDLIGINI OQILONA BOSHQARISH MUAMMOLARI

Quromboev Muxtorbek
Vatan universitety, Iqtisodiyot kafedrasi o‘qituvchisi
DOI : 10.67620/MMMjournal.33110014

Annotasiya*. Mazkur maqolada tijorat banklari likvidligini oqilona boshqarishning nazariy va amaliy jihatlari, bank faoliyatida likvidlikni ta’minlashning iqtisodiy ahamiyati hamda mavjud muammolar tadqiq etiladi. Shuningdek, bank aktivlari va passivlarini samarali boshqarish, likvidlik risklarini baholash, pul oqimlarini prognozlash hamda moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash masalalari yoritilgan. Tijorat banklarida likvidlikni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish, zamonaviy moliyaviy texnologiyalardan foydalanish va xalqaro tajribani joriy etish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi.*
Kalit so‘zlar: *Likvidlik, bank, risk, bank aktivlari va passivlari.*
Abstract. *This article examines the theoretical and practical aspects of the prudent management of commercial bank liquidity, the economic significance of ensuring liquidity in banking operations, and existing challenges. It also covers the effective management of bank assets and liabilities, the assessment of liquidity risks, the forecasting of cash flows, and the strengthening of financial stability. Furthermore, the article develops scientific and practical proposals for improving liquidity management mechanisms in commercial banks, utilizing modern financial technologies, and incorporating international best practices.*
Keywords: *Liquidity, bank, risk, bank assets and liabilities.*
Аннотация. *В статье рассматриваются теоретические и практические аспекты осмотрительного управления ликвидностью коммерческого банка, экономическая значимость обеспечения ликвидности в банковской деятельности, а также существующие проблемы. Также освещаются вопросы эффективного управления банковскими активами и пассивами, оценки рисков ликвидности, прогнозирования денежных потоков и укрепления финансовой устойчивости. Кроме того, в статье представлены научно-практические предложения по совершенствованию механизмов управления ликвидностью в коммерческих банках с использованием современных финансовых технологий и учетом передового международного опыта.*
Ключевые слова: *Ликвидность, банк, риск, банковские активы и пассивы.*

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida»gi qonunning «Banklarning o‘z mijozlari olididagi javobgarligi» 39-moddasiga muvofiq banklar depozit qabul qabul qilar ekanlar, ularni saqlash hamda mijoz topshirig‘iga muvofiq o‘z vaqtida to‘lovlarni amalga oshirish majburiyatini o‘z zimmasiga oladi.

Shuning doirasida davlatimiz oldiga qo‘ygan yuksak maqsadlari erishish yo‘lida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan bank tizimidagi muammolar talaygina, shu bois, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 25-oktabrda bank tizimini isloh qilish va banklarning investitsiyaviy faolligini oshirish masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilishda tijorat banklarining

moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, investitsiyaviy faolligini oshirish hamda tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash zarurligini ta’kidladi.

Shuningdek, Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 24-yanvarda Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasida bank tizimini isloh qilish, bank xizmatlari sifatini yaxshilash, banklar faoliyatida zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va mijozlar manfaatlarini ustuvor vazifa sifatida belgilash masalalariga alohida e’tibor qaratdi.

Mazkur vazifalar bank tizimining barqarorligini ta’minlash, iqtisodiyot tarmoqlarini moliyalashtirish, investitsiyalarni jalb etish va tijorat banklarining iqtisodiy rivojlanishdagi ishtirokini kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Pul muomalasi, banklar tomonidan naqt mablag‘lar to‘siqsiz va to‘liq kafolatlarini yaratish vazifalari dolzarbligicha qolmoqda» deya fikr bildirgan. Shundan kelib chiqib, zikr etilgan qarorda bankdan tashqarida pul mablag‘lari aylanishi holatlarini qisqartirish va bu bo‘yicha nazoratni kuchaytirish maqsadida hududlar doirasida har bir tushum manbalari bo‘yicha pul oqimining o‘zgarishi, shuningdek korxonalarning naqd pul tushumini to‘liq topshirgani va topshirishdan bo‘yin tovlagani to‘g‘risidagi tezkor axborotni kundalik ayirboshlashning yagona elektron tarmog‘ini joriy etish hamda dehqon bozorlarida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik sub’ektlari va jismoniy shaxslarning pul mablag‘larini jamg‘arma, muddatli depozitlarga, shu jumladan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotishdan tushadigan bo‘sh pul mablag‘larini omonatchilarga mablag‘ saqlanadigan har bir kun uchun foizli daromad qo‘shgan holda vaqtincha saqlashga jalb etish talabi qo‘yildi.

Bank tomonidan mijozning talabini qondra olmaslik bo‘yicha yo‘l qo‘yilgan har bir holat bankka va umuman bank tizimiga nisbatan jamoatchilik ishonchining yo‘qolishiga olib keladi.

Muxtasar qilib aytganda, bank boshqaruvining vazifasi o‘zining moliyaviy mablag‘larini o‘sishini ta’minlash natijasida bank faoliyatini kelajakdagi rivojlanish tendentsiyasini ishlab chiqishi, bozor sektorini (mintaqaviy, tarmoq, mahsulot) qamrab olish vazifasini yuklaydi. Bank faoliyatining asosiy kontseptual ta’rifi esa, shiddatli raqobat sharoitida uning strategik rivojlanish rejalarini ishlab chiqishdan iborat.

Bank ishiga oid adabiyotlardan ma’lumki, tijorat banklari chetdagi bo‘sh pul mablag‘larining o‘ziga jalb etish va uning barobarida mavjud mablag‘larni oqilona joylashtirish eng asosiy muammolarning sarasiga kiradi. Buning uchun bankning samarali faoliyatida uning aktivlar sifati oqilona boshqarish jaryonida bank likvidlilik me’yorini ta’minlashi, mavjud risklarini oldindan ko‘ra bilishi va ularning strategik reja tadbirlarini muvofiqlashtirilishiga bog‘liq.

Shu bois, biz, mazkur strategik rejada bank aktivi va likvidligini boshqarish g‘oyalarini taktik biznes rejasining tahlil qilish g‘oyasini ilgari suramiz.

Xususan, strategik rejalashtirishda xarakterli jihatlari balans ko‘rsatkichlari ifodasi bo‘lib, bu har bir hisobot davrida belgilanadi. Strategik reja jarayonining boshqa muxim taktik xosilasi balans ko‘rsatkichlarni tahlilida uning usuli yoki modellining foydalana olish imkoniyati darajasiga bog‘liq.

Dj. Sinki[1] taktik rejalashtirishning ikki hil usulini ilgari suradi. Bu buxgalterlik va iqtisodiy (bozor) yo‘nalishlari bo‘lib, buxgalteriya usuli – taktikka, bozor esa bank strategiyasi deb tarif bergan. Strategik reja muttasil o‘zgaruvchi bozor munosobatlarida, bank faoliyatining asosiy mezoni o‘z aktivlari va passivlarini samarali boshqarishni rejlashtirish natijasida bank kapitalini o‘sishini ta’minlash bo‘lsa, taktik rejada sof foyizli daromad olishga intiladi. Bunday cheklanishlar strategik rejaning taktik natijasi, bank kapitali o‘sishi ta’minlashda qisqa muddatda xarajatlarga nisbatan

[1] Sinki Dj. Ml. Upralenie finansami v kommekrcheskom banke. M.: Catallaxy, 1994 s.17

daromadni o‘sishini ta’minlashdir. SHu bois, taktik rejada bank aktiv va passivlari maqsadli yo‘nalishi sof foyizli daromad marjasida o‘z ifodasini topadi.

Taktik reja tijorat banklarining strategik vazifasini realizatsiyasi ta’minlash maqsadi bo‘lib, unda miqdor, sifat, va resurslar taqsimotini aniqlashda belgilangan yoki mavjud farmoyishlar uchun mavjud masalaning echimini bajarilishiga qaratilgan taktik reja, mavjud strategik maqsadni bajarilishini aniqlab olishini, joriy bosqichda belgilangan moliyaviy proektlarni ishlab chiqishda bank aktivlari va passivlarini tuzilishini muvofiqlashtirish strategik rejalashtirishni asosiy maqsadi hisoblanadi. (1–rasm).

Tijorat banklarining stretegik rejasi tuzishda, muttasil o‘zgaruvchi iqtisodiy infratuzilma sharoitlarini inobotga olib, bank faoliyatining rivojlantirish tendentsiyasini belgilab olish lozim. Bunda bank o‘zining mavq’e va potentsial imkoniyatlari doirasida o‘z faoliyatini makroiqtisodiy tahlili olib borishi (tashqi tahlil) hamda o‘z faoliyatini ichki moliyaviy imkoniyatlarini belgilab olishlari zarur (ichki tahlil). SHuningdek, u o‘z faoliyatining ichki va tashqi imkoniyatlar monitoringi echimiga asoslanib, kelajakdagi samarali boshqaruv strategiyasini belgilashi mumkin.

Tijorat banklarining tashqi tahlili *(taktik rejada)* balans ma’lumotlari miqdoriy ko‘rsatkichlariga yo‘naltirilgan bo‘lmasdan balki, bozordagi strategik o‘rni belgilanadi. Shu bois, bunday tahlil natijasi tijorat bankning strategik va taktik rivojlanish mexanizmini belgilashi joiz.

Ichki tahlil *(joriy reja)* davomida bankning ichki moliyaviy imkoniyatlari belgilanib, unda bankning moliyaviy imkoniyatlari (bankning siyosiy risk boshqaruvi hisobi bilan birga) baholanadi. Tijorat bankdagi ko‘rsatilayotgan xizmatlarning turi, sifatilari, taklif etilayotgan mahsulot va ularning raqobatdosh banklar bilan analitik xazmatlarining qiyosiy tahlili (belgilangan balans reja ko‘rsatkichlari va bankning aktiv va passivlari tavsifi klassifikatsiyalari bilan birga), bankning mavjud mijozlari bazasi va uning dinamikasi (bankning mijozlarni jalb etish bo‘yicha va insvestitsiya mablag‘larining yo‘nalishlarini hisobi bilan birga), bankka yuklatilgan vazifalarni echimiga doir tuzilmasini tashkil etishdagi etarli moliyaviy imkoniyati (bankning mintaqaviy bo‘lim tarmoqlari va uni bashqarishdagi siyosiy tashkil etish xarajatlari hisobi bilan birga) belgilanadi.

Shuningdek, tijorat banklari faoliyati ichki muhiti o‘zgaruvchan xarakterga ega, shuning uchun olingan yangi ma’lumotlarining to‘laligini baholashi va bank strategik boshqaruvda har bir yo‘nalishning barcha jabhalarini samarali strategiyasini ishlab chiqishi lozim. Tashqi va ichki tahlilning natijasi bu bosqichda tijorat bankning marketing izlanishlaridagi o‘zgarish va aniqliklarini, siyosiy boshqaruv riskki va xodimlar boshqaruvi siyosatini belgilab beradi.

Bankning rivojlanish strategiyasi belgilab olinganidan keyingi bosqichda taktik reja asosida bank faoliyati yo‘nalishiga ta’siri o‘tkazish chora-tadbirlari belgilab, undan o‘tmishdagi ma’naviy eskirgan, yoki muzlatilgan reja o‘rniga mavjud muammolarning echimi topilgan yangi topshiriqlar belgilangan reja bank amaliyotiga joriy etiladi. Mazkur rejada bank boshqaruvi tamonidan belgilangan tartibda bozorning asosiy xarajatlari belgilanib, aniqlangan ro‘yhat va alohida bankning aktiv va passivlari miqdori chegarasi, shuningdek, adminstrativ boshqaruv xarajatlariga muvofiqligini ta’minlash sharoitlari belgilanadi.

Bank likvidligini samarali boshqarish aktiv va passivlarni boshqarishni o‘z ichiga olib, likvidlikni boshqarish doirasida bo‘lgan talablar, bank balansining aktiv va passiv qismlarini mufassal boshqarishni ta’minlashi zarur.

Shu bois, taktik rejaning keyingi boqichi bu bank balansidagi aktiv va passivlari tuzulishi samaradorligini belgilash bo‘lib, asosan bank aktiv va passivlarini oqilona tartibda shakllantirishdan iborat. SHu bilan birga, tijorat banklarining aktiv va passivlarini oqilona modellashtirish, bankning

ichki rejasini belgilashda yangi proekt va programma xarajatlarini hisobga olishi lozim. Bunda bank balansining absalyut va nisbiy ifodalar ko‘rsatkichlarining samaradorligini optimlashtirish va shu bilan birga asosiy bank risklarini cheklash, belgilangan limitlarini qayta ishlab chiqishi lozim.

Optimallashtirish jarayoni. Bank balansi ko‘rsatkichlaridagi aktiv va passivlari miqdori tuzulishi hisobot davrining ohirida bank intiluvchi natijaga va rejaning ichki davriy hisoboti mobaynida katta daromad keltirishi mumkin. SHu bois, bizingcha, bu yo‘nalishdagi likvidlilik darajasini minimal holatga keltirib rejalashtirish maqsadga muvofiqdir. Bu rejalashtirishning quyidagi tartibda tuzish mumkin:

1.Bank aktiv va passivlari tuzulishi asosida rejalashtirish davrining miqdoriy son va har bir bank balansidagi gurux yoki bo‘lim qoldiqlari rejalashtirilayotgan oyining oxirgi summa qoldiqlari optimillashtirilayotgan reja qoldiqlari bilan solishtiriladi.

2.Rejalashtirilayotgan oraliq davr pul mablag‘lari tushumi kelajakdagi davrlarga muvofiq ajratiladi. U davr bankning belgilangan joriy opretsiyalari tavsifiga qarab rejalashtirish kerak.

3.Bank aktiv va passivlaridagi pul tushumlarining xarakati davriga qarab pul tushumi jadvali, shuningdek, majburiyatlarining bajarilishi vaqtiga qarab, majburiyatlarning bajarish tartib jadvalini tuzish zarur.

4.Quyidagi formula asosida har bir davr uchun minimal likvidlilik hisoblab chiqishni tavsiya etiladi.

$$Л = \frac{\sum_{1}^{n} Пк_i - Пч_i}{Ў_к} \times 100$$

Bunda: $Пк_i$ - har bir vaqt oralig‘idagi bankka keluvchi pul oqimi;

$Пч_i$ - har bir vaqt oralig‘idagi bankdan chiquvchi pul oqimi;

$Ў_к$ -rajalashtirish vaqtidagi jalb qilingan pul mablag‘larining o‘z-o‘zini qoplash miqdori[2].

Bank balansining aktiv va passivlari taktik rejaga muvofiq bo‘lim moddalari joylashtirishda bankka keluvchi va chiquvchi pul oqimi yo‘nalishi aniqlanib, har bir modda elementlari raqamlanib, reja tuzish ketma-ketligi belgilanadi.

Bank pul oqimlarining tushuvchi va chiquvchi yo‘nalishlari muvofiqlashtirilganda (pul oqimining tushuvchi va chiquvchi moddalarini jamlash yo‘li bilan) aktiv va passivlarning o‘sishi (kamayishi)ni jamlash natijasida, mazkur qoldiqlar miqdorining likvidlilik uzilish chegarasini belgilaydi.

Bu jarayonda reja nazoratini engillashtirish maqsadida bank balansi aktiv va passivlarining yaqqol jamlash natijasida bankka real pul oqimi keluvchi va chiquvchi pul omillari balans moddalari ajratib olinib, uning qiyosiy tahlili o‘rganiladi. (1-jadval)

Bizga ma’lumki, bank aktivlari bu bankka tegishli bo‘lgan va moddiy qiymatga ega bo‘lgan qiymatliklar bo‘lib bular: naqd pullar, qarzga berilgan mablag‘lar, binolar va asbob-uskunalardan tashkil topadi. Bulardan tashqari bankda nomoddiy aktivlar ham mavjud bo‘lib, ular o‘zlarining moddiy shakliga ega bo‘lmaydilar, ammo bankning asosiy faoliyatida faol ishtirok etadi. U bank

[2] Dudka A.Mesto modelirovaniya optimalьnoy strukturы aktivov i passivov v sisteme planirovaniya deyatelьnosti kreditnoy organizatsii.//Analiticheskiy bankovskiy jurnal.-M.: № 4 2007 g. s.78

aktivlari tarkibining to‘g‘ri belgilab olishi va ulardan maqsadli foydalanishi banklarning samarali faoliyat olib borishiga asos hisoblanadi.

1-jadval Bank aktivining real daromadlari

Bank aktivlari	**Hamkor bank (ming so‘m)**	**Salmog‘i (%)**	**Moskva bank (ming rubl)**	**Salmog‘i (%)**
Daromadlar jami	34212	100	200540	100
Foizli daromadi	10.256	46.8	163.964	92
Vositachilik daromadi	6.508	19	2.518	1.2
Valyuta daromadi	270	0.8	1.785	0.9
Tijorat daramodi	11.487	33.4	11.902	5.9

Mazkur tijorat banklarining 2025-yil 1-yanvar holatiga e’lon qilingan balans ko‘rsatkichlari

1-jadvalda keltirilgan tijorat banki balans ma’lumotlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, 2020-yil 1-yanvar holatiga “Hamkorbank” aktivlarining daromad keltiruvchi tarkibida foizli daromadlar muhim o‘rin egallagan. Bank faoliyatida foizli daromadlarning shakllanishi, asosan, mijozlarga va boshqa banklarga ajratilgan kreditlar hamda boshqa foiz keltiruvchi aktivlar bilan bog‘liq. Ushbu ko‘rsatkich bankning kredit operatsiyalari samaradorligini va daromad olish imkoniyatlarini baholashda muhim ahamiyatga ega.

Tijorat banklari faoliyatini o‘rganishda kredit portfelining sifati, muddati o‘tgan qarzdorliklar ulushi, kredit risklarini boshqarish darajasi hamda ajratilgan kreditlarning qaytarilish holatini tahlil qilish zarur. Chunki kredit operatsiyalari bank daromadlarining asosiy manbalaridan biri bo‘lishi bilan birga, moliyaviy risklarning ham muhim manbai hisoblanadi. Shu sababli bankning bozordagi mavqeyini baholashda nafaqat foizli daromadlar ulushi, balki mijozlarning moliyaviy holati, kreditga layoqatliligi va kredit portfelining diversifikatsiya darajasini ham o‘rganish lozim.

Hamkorbank tijorat operatsiyalaridan olingan daromadi 33.4 foizni tashkil etgan, bunda bankning qimmatbaho metallar, tosh va tangalar bilan tijorat operatsiyalaridan olingan foyda hisoblanadi. Bunda ushbu bank mijozlarga xizmat ko‘rsatish turlarini kengaytirib borayotganligidan dalolat beradi. Moskva bankida bu 5.9 foizni tashkil etgan.

Hamkorbankda foizsiz (vositachilik) daromadlari 19 foizni tashkil etgan, bunda Markaziy bank va tijorat banklarga ko‘rsatilgan xizmatlar, bankning qimmatli qog‘ozlar bilan brokerlik operatsiyalari, qimmatli metallar, toshlar va tangalar, faktoring, trast, akkreditiv va aktseptlar, overdraft, shuningdek, kredit bo‘yicha vositachilik va shunga o‘xshash foizsiz daromadlariga doir tariflangan turkum hisobvaroqlaridagi xizmatlar va vositachiliklardan olingan daromadlar hisoblangan. Mazkur bankning vositachilik xizmatlari tariqqiy etayotganligini ifodalaydi. Mazkur ko‘rsatkich Moskva bankida 1.2 foizni tashkil etgan.

Hamkorbankda Valyuta operatsiyalaridan olingan daromadlari 0.8 foiz bo‘lib, unda Spot, Forvard, Optsion, Fьyuchers, Spot bitimlari bo‘yicha va hisoblangan marjadan bank foydalari hisobi olib boriladi. Foyda o‘rnatilgan muddatda balans hisobini tuzish sanasiga hisobvaroqlar qoldig‘ini qayta baholangandan keyin aniqlanadi. Moskva bankida bu ko‘rsatkich 0.9 foizni tashkil etgan.

Bizningcha, aktivlar tarkibida daromad keltiruvchi aktivlar salmog‘i qancha ko‘p bo‘lsa, bu holat bank o‘z aktivlaridan daromad olish maqsadida samarali foydalanayotganini bildiradi. Misolimizda keltirilgan ikki tijorat bankning likvidlik darajasini muvofiqlashtirish uchun ularning mazkur banklarining real xarajat va majburiyat moddalirini tahlilini ko‘rib o‘tamiz.(2-jadval)

2-jadval Bank passivlarining real harajatlari

Bank passivlari	Hamkor bank (ming so‘m)	Salmog‘i (%)	Moskva bank (Ming rubl)	Salmog‘i (%)
Jami bank majburiyatlari	64.327	100	242942	100
Talab qilib olguncha depozitlari	20.546	32	12.855	5
Jami depozitlari	9.870	15	150.401	62
Muddatli depozitlari	22.286	35	4.266	2
Banklarning depozitlari	2.816	4.4	67.721	29
Banklararo to‘lanadigan ssudalar	4.571	7	2.640	1
Boshqa to‘lanadigan ssudalar	2.866	4.6	3.503	1.4
Boshqa depozitlar	1.372	2	1.556	0.6

Manbaa:Mazkur tijorat banklarining 2025 yil 1yanvar holatiga e’lon etgan balans ko‘rsatkichlari

2-jadvalda Hamkorbankining talab qilib olguncha depozitlar 32 foizni, muddatli depozitlar 35 foizni, jamg‘arma depozitlari 15 foizni tashkil etadi[3].

Mazkur hisobraqamlardagi depozitlar bank ofisida ochiladigan va hukumatning joriy maqsadlarda foydalaniladigan byudjetdan tashqari mablag‘lari hisobi, jismoniy shaxslar, mavjud jamg‘armalar, xususiy korxona, xo‘jalik, fermer, dehqon shirkatlari xo‘jaliklari va shunga o‘xshash yuridik va jismoniy shaxslarining joriy maqsadlarda foydalaniladigan mablag‘lari hisobi olib boriladi. Bu ko‘rsatkich Moskvabankida Talab qilib olguncha depozitlar 5 foizni, muddatli depozitlar 2 foizni, jamg‘arma depozitlari 62 foizni tashkil etgan.

Hamkorbankda banklar depozitlari 4.4 foizni tashkil etgan bo‘lib, unda boshqa banklarning ushbu bankdagi depozitlari hisobi olib boriladi. Moskvabankida bu ko‘rsatkich 29 foizni takil etgan.

Hamkorbankda Banklararo to‘lanadigan ssudalar 4.6 foizni tashkil etgan. Bunda boshqa bankdan olingan qisqa muddatli va uzoq muddatli kreditlarlarning summasi jamlanagan. Moskva bankida bu ko‘rsatkich 1.4 foizni tashkil etgan.

Hamkorbankda boshqa depozitlar 2 foizni tashkil etgan. Bunda bankning mijozlarga boshqa xizmat turlariga doir hisobraqam yuritilib, unda mijozlarning akkreditivlar bo‘yicha, yoki mijozlarning tovar-moddiy qiymatliklari va ko‘rastilgan xizmatlar to‘lovi uchun va shunga o‘xshash xizmatlarga oid depozitlari hisobga olinadi. Bu ko‘rsatkich Moskvabankida 0.6 foizni takil etgan.

Bank aktiv va passivlarining amaldagi olingan natijalar ijrosi belgilangan mutasaddi tashkilotlar orqali tasdiqlanib, ichki mintaqaviy bo‘limlar rejalariga muvofiqlashtirish lozim.

Xulosa

Bank aktiv va passivlarni tuzilishini oqilona boshqarish va uni tashkil etish nuqtai nazarda quyidagilarni asosiy maqsad qilib olish tavsiya etamiz. Bular:

-aktivlarni tuzilishini rejalashtirishda bank daromadi kattaligini maksimal yuzaga keltirish;

[3] Yuqorida ko‘rsatilgan depozit hisobvaroqlari o‘z xususiyatlari bo‘yicha bir xil bo‘lganligi uchun ular umumlashtirilib berilmoqda.

-passivlarni tuzilishini rejasida bank xarajatlarini kattaligini minimal darajaga keltirish;

-foizli daromad va xarajatlarning rejadagi miqdorlarini qiyosiy taqqoslashda xarajatlarni minimal sarfini tashkil etish;

-foizli xarajatlar ustidan foizli daromadni o‘sishini maksimal darajaga erishish;

-bankning o‘tgan besh yilida belgilangan aktiv va passivlarni tuzilishini oqilona boshqarish rejalashtirish natijalari bilan solishtirish;

-bankning oshirilgan foizli marja sharoiti bajarilishiga doir nazorat tartibini belgilash;

-dastlab aktiv va passivlar reja tuzilishi ishlab chiqish bosqichida, nima uchun cheklov belgilanganligi, bank risklariga qo‘yilagan cheklovlarni bajarilishini tekshirishlari lozim.

Bank aktiv va passivlarini oqilona boshqarishdagi bosqichlari natijasi salbiy echimiga ega bo‘lsa, undagi barcha davriy reja sharoitlarni qayta tekshirish lozim. Agar ijobiy echimda bo‘lsa mazkur rejani mansabdor shaxslar tamonidan tasdiqlanadi. SHundan keyin bank balansining har bir bo‘limlari reja ko‘rsatkichlari natijasida belgilangan me’yorda shakllantiriladi. Unda belgilangan me’yorlar balans ko‘rsatkichlari bo‘yicha har bir modda, bo‘lim va guruxlari bo‘yicha raja bajarilish davrini (oy, chorak, va x.) ajratib olib rejadagi istiqbolli yo‘nalishni belgilab olinadi.

Bank likvidligini oqilona boshqarishda belgilangan rejaning maqsadi va belgilangan vazifalari asosida bankning strategik va taktik echimiga mos ravishda shakllantirilishi lozim. SHuningdek, kelajakdagi turli moliyaviy bozorda va har qanday intensiv bank faoliyatga mo‘ljallangan tavsiyalar ishlab chiqilishi bo‘yicha izlanishlar olib borilishi mumkin.

1. Sh.Abdullaev Bank ishi Iqtisodiot va moliya T 2014.
2. Basel Committee on Banking Supervision. *Principles for Sound Liquidity Risk Management and Supervision*. – Basel: Bank for International Settlements, 2008.
3. Basel Committee on Banking Supervision. *Basel III: The Liquidity Coverage Ratio and Liquidity Risk Monitoring Tools*. – Basel: Bank for International Settlements, 2013.
4. *io*. – Basel: Bank for International Settlements, 2014.
5. International Monetary Fund. *Financial Soundness Indicators Compilation Guide*. – Washington, D.C.: IMF, 2019.